



UO'K: 373.5.016

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14650812>

“MILLIY TARBIYA ASOSLARI” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ «ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ»

APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SCIENCE OF “BASES OF NATIONAL EDUCATION”

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

*Farg'ona davlat universiteti “Pedagogika” kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti
“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida “Milliy tarbiya asoslari” fanini o'qitishda yangicha yondashuv asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning uzviyligi va uyg'unligini ta'minlash yo'llari hamda o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali ta'limning sifati va samaradorligini orttirish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shuningdek, tadqiqot ishiga doir empirik ma'lumotlar keltirilgan. Maqola so'ngida xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, tarbiya, milliy tarbiya, uzkuksiz ma'naviy tarbiya, pedagogik texnologiya.

Аннотация.

В данной статье на основе нового подхода к преподаванию «Основ национального образования» в высших учебных заведениях определены пути обеспечения связности и гармонии использования современных технологий и повышения качества и эффективности образования за счет использования интерактивных методов. Преподавания и предназначен для разработки предложений и рекомендаций по улучшению. Также представлены эмпирические

данные по исследовательской работе. В конце статьи представлены выводы и разработанные научно-методические рекомендации.

Ключевые слова: *Ценность, воспитание, национальное воспитание, непрерывное духовное воспитание, педагогическая технология.*

Abstract.

In this article, on the basis of a new approach to the teaching of “Basics of National Education” in higher educational institutions, ways to ensure the coherence and harmony of using modern technologies and to increase the quality and efficiency of education by using interactive methods of teaching. and is intended to develop suggestions and recommendations for improvement. Empirical data on the research work are also presented. At the end of the article, the conclusions and developed scientific-methodological recommendations are presented.

Key words: *Value, education, national education, continuous spiritual education, pedagogical technology.*

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilar oldida jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikr, kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdek masuliyatli va sharaflı vazifa turibdi. Bunday masuliyatli ishni albatda chuqur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaga ega bo'lgan pedagoglar ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy axborot va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiradilar. Mazkur jarayonda “Milliy tarbiya asoslari” fanining o'rni beqiyosdir. XXI asr axborot va texnologiyalar asri bo'lib insonlar hayot tarzi, ta'lim olish va mehnat jarayonlari, ijtimoiy munosabatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, natijada bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, axborot makonlarining o'zlariga xos mafkuraviy poligonlarga aylanib borish holatlari ayniqsa, ta'lim tizimida muayyan xavf-xatarlarni keltirib chiqarayot mafkuraviy g'oyalarga qarshi immunitetni hosil qila olish. O'sib kelayotgan yosh avlodni ular kichik maktab yoshidaligidayoq milliy qadriyatlar ruhida zamonaviy yondashuv asosida zamonaviy pedagogik texnologilarni qo'llash orqali o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, turli yot g'oyalar ta'siridan saqlab yoshlarni zamovnaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish barcha davlarning dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar bobolarimizdan A.Avloniy takidlaganidek; “*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*” Milliy tarbiya har bir davrda, har bir millatning faqat o'zigagina hos bo'lgan ma'daniyati, ma'rifati, qadryati, an'alarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov takidlaganidek; “*Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash, bu sharqona hayot falsafasidir*” shuni

unitmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori, bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni yoshlarni qanday ta’lim-tarbiya olayotganiga bog‘liq. Bu tushunchani yoshlar ongiga singdirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni juda katta.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi ta’lim jarayonining muhim talablari qatoridan o‘rin olmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar milliy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Milliy tarbiya masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, uning mohiyati o‘ziga xos tarixiy, madaniy va ma’naviy asoslarga ega ekanligi ta’kidlangan. Masalan, A.N. Sodiqov (2020) milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlod ongida ular asosida ma’naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv milliy tarbiya fani mazmunini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, G.Abduvohidova (2019) tomonidan olib borilgan izlanishlarda milliy tarbiyaning yoshlar ijtimoiylashuvidagi o‘rni va uning ijtimoiy institutlar bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. Olimaning fikriga ko‘ra, milliy tarbiya doirasidagi faoliyatni zamonaviy texnologiyalar yordamida boyitish jarayonni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bugungi kunda o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. J.Dewey (1938) tomonidan ilgari surilgan tajribaviy ta’lim nazariyasi, ayniqsa, interaktiv metodlarni qo‘llashning nazariy asoslarini yaratib berdi. Ushbu yondashuv milliy tarbiya fanida ham ko‘plab interaktiv texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini taqdim etadi.

V.F.Gabdulxakov (2015) zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ta’lim sifati va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlariga ijobiy ta’sirini tahlil qilgan. Ushbu yondashuv milliy tarbiya fani mazmunini o‘zlashtirishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini samarali qo‘llash lozimligini ko‘rsatadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida milliy va ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. A. Hasanov (2018) uzluksiz ta’limning ma’naviy tarbiya mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ma’naviy tarbiya yosh avlodning shaxsiyati shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu jarayon zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda esa yanada yuqori natijalarga erishiladi.

Interaktiv ta’lim metodlari, xususan, guruhli faoliyat, rolli o‘yinlar, keys-stadilar va muammoli ta’lim usullari milliy tarbiya mazmunini samarali o‘zlashtirishda muhim vositalardandir. I. Abduvaliyev (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar milliy tarbiya fanida interaktiv metodlarni qo‘llashning o‘quvchilarning motivatsiyasi va bilim darajasini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Rolli o‘yinlar orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatish, guruhli munozaralar yordamida o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish kabi yondashuvlar yuqori natijalar bermoqda.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada boyitish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. J. S. Milligan (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli platformalar va interaktiv dasturlarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Xususan, "Learning Management Systems" (LMS) kabi platformalardan foydalanish milliy tarbiya asoslari fanida o'quv materiallarini yetkazishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'lim texnologiyalari, video darslar va onlayn simulyatorlar milliy tarbiya mazmunini o'quvchilarga yetkazishda keng qo'llanilishi mumkin. Bunday vositalar milliy qadriyatlar va an'analarni o'rgatishda o'quvchilarni qiziqtirishga yordam beradi.

Milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonni nafaqat samarali qiladi, balki o'quvchilar ongida milliy qadriyatlar va an'analarni mustahkamlashga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interaktiv metodlarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini boyitish va zamonaviy talablar darajasiga moslashtirish mumkin. Shuning uchun mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

Fanlararo va pedagogik tadqiqotlar, ta'lim texnologiyalari va milliy tarbiya bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ushbu metod fan bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini aniqlash va ularning didaktik imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqot ishtirokchilaridan so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. Bu metod orqali zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, o'quv jarayonidagi qiyinchiliklar va talabalar qiziqishi baholandi.

"Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari kuzatildi. Bu jarayon o'qitish samaradorligini oshirishda texnologiyalarning ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning darsga bo'lgan qiziqishi ortgani kuzatildi. Interaktiv va multimediyalar vositalari yordamida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni talabalarga etkazishda vizuallik darajasi ortdi. Ta'lim jarayonida onlayn platformalar va interaktiv dasturlardan foydalanish talabalar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytirdi. Shuningdek, talabalarning milliy tarbiya bo'yicha mustaqil ma'lumot izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllandi.

Zamonaviy texnologiyalar har bir talabaga o'zining qobiliyat va qiziqishlariga mos tarzda o'quv materiallari bilan ishlash imkoniyatini yaratdi. Bu yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshirdi. Pedagoglar zamonaviy texnologiyalar orqali milliy tarbiya mavzularini yanada mazmunli va samarali tarzda o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ta'lim platformalari va texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarga innovatsion yondashuvlarni joriy qilishda ko'mak berdi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy tarbiya mazmunini yoshlarga qiziqarli va ular uchun tushunarli formatda etkazish imkoniyati kengaydi. Bu esa milliy tarbiyaning yosh avlod ongida chuqurroq singishiga xizmat qildi.

“Milliy tarbiya asoslari” fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining innovatsion va interaktiv xususiyatga ega bo‘lishini ta‘minlaydi hamda talabalarning milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, multimedia materiallari va interaktiv platformalar, milliy tarbiya mazmunini vizual va eshitiladigan shaklda talabalarga etkazishda katta imkoniyat yaratdi. Bu esa axborotning qabul qilinishini osonlashtirdi va uning ta‘sirchanligini oshirdi. Ta‘limning individuallashtirilgan shakllarini qo‘llash orqali har bir talabaga uning qobiliyat va qiziqishlariga mos ma‘lumotlar bilan ishlash imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv milliy tarbiyaning talabalar ongida yanada samarali singishiga olib keldi.

Zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘qituvchilarning ijodkorlik imkoniyatlarini oshirish bilan birga, dars jarayonining sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilishini ta‘minladi. Interaktiv texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish milliy qadriyatlarni yoshlar tiliga mos tarzda ifodalash imkonini berdi. Masalan, o‘yin elementlari yoki raqamli hikoyalar orqali tarixiy shaxslar hayoti, milliy an‘analar va qadriyatlar qiziqarli formatda taqdim etildi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash yoshlarni milliy qadriyatlar bilan bir qatorda global madaniyatga ham yaqinlashtirdi. Bu jarayonda milliy tarbiya mazmunini global miqyosda targ‘ib qilish imkoniyati shakllandi, biroq milliylikka xos xususiyatlarning yo‘qolib ketish xavfini oldini olish masalasi ham nazarda tutildi.

XULOSA

“Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni fan mazmuniga jalb qilish, ularning qiziqishini oshirish va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni yengillashtirish imkonini beradi. Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar orqali milliy qadriyatlar va tarbiya mazmuni interaktiv, vizual va qiziqarli usullarda etkazilishi talabalarning mazkur fanga nisbatan motivatsiyasini oshirdi va ularning milliy o‘zlikni anglashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchilarga innovatsion pedagogik usullarni qo‘llash imkonini berib, ta‘lim jarayonida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni joriy etishga xizmat qildi.

Raqamli vositalar talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga yordam berdi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va bilimlarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi, bu esa ularning mas‘uliyatini oshirdi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- interaktiv texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish (o‘qituvchilar milliy qadriyatlarni talabalarga etkazishda zamonaviy vositalar (multimedia materiallari, raqamli platformalar, o‘quv dasturlari)dan erkin foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim);

- raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish (ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar, kompyuter sinflari va internet resurslari bilan ta'minlash darajasini oshirish zarur);
 - o'quv dasturlarini takomillashtirish ("Milliy tarbiya asoslari" fanining o'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalarga integratsiya qilish va raqamli resurslarni o'quv jarayoniga moslashtirish tavsiya etiladi);
 - mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish (talabalar uchun milliy tarbiya mazmuniga oid raqamli resurslardan foydalanishni mustaqil o'rganish imkoniyatlarini yaratish kerak);
 - virtual platformalardan foydalanish (talabalarni milliy tarbiya bilan bog'liq onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanishga rag'batlantirish muhim);
 - fan va texnologiya integratsiyasini o'rganish (milliy tarbiya fanini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni davom ettirish lozim);
 - milliy kontentni boyitish (milliy qadriyatlar, tarbiya va urf-odatlariga oid raqamli kontentni yaratish va boyitishga qaratilgan ilmiy loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi).
 - milliy tarbiyani targ'ib qilish (jamiyatda milliy tarbiya qadriyatlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida keng ommaga etkazish uchun madaniy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish zarur);
 - oila va maktab hamkorligini kuchaytirish (ota-onalarni ham milliy tarbiya mazmuni va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan tanishtirish, ularni ta'lim jarayoniga jalb etish kerak);
- Mazkur tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali "Milliy tarbiya asoslari" fanining ta'sirchanligi va yosh avlod ongida milliy g'urur va qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Navoiy A. Xamsa. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2019.
3. Abduqodirov A., Yo'ldoshev A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi, 2014.
4. G'afurov I., Qo'chqorov M. Ta'lim texnologiyalari asoslari. Toshkent: Fan, 2016.
5. Adizov B., Saidova D. Raqamli ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Innovatsiya, 2020.
6. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

8. Yusupov E. Milliy tarbiya asoslari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
9. UNESCO. ICT in Education: A Critical Review. Parij, 2015.
10. Nasriddinov T., Qobilov J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2022.
11. Rasulov A., Jo‘rayev X. Milliy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Toshkent: Ma'naviyat, 2017.